

NET-400 - SON

TELEKOMMUNIKATSİYA XİZMATLARI KO'RSATILISHI TO'G'RISIDA ABONENT SHARTNOMASI

Yuridik shaxslar (shu jumladan, byudjet tashkilotlari) uchun

«13» 01 2022 yil

Farg'ona sh.

"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o'rnlarda – Kompaniya) nomidan 2021 yil "31" dekabrdagi № 27-01/14/6024-son ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Kompaniyaning Farg'ona filiali Direktori V.Yejkov (keyingi o'rnlarda – Operator) bir tomonidan, do'stova bekorli xizmatnomasi nomidan Ustav (Nizom, ro'yxta olinganlik to'g'risidagi guvohnoma, ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi U.A.Doston (keyingi o'rnlarda – Abonent) ikkinchi tomonidan (keyingi o'rnlarda birlgilikda – Tomonlar) telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi bo'yicha quyidagilar haqida Abonent shartnomasini (keyingi o'rnlarda – Shartnoma) tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti:

1.1. Abonent ushbu Shartnomanini imzolab:

- Operatorming WWW.UZTELECOM.UZ rasmiy veb-saytida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-369-moddalariga muvofiq "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida abonent shartnomasini tuzishga rasmiy ommaviy taklifi bo'lgan Ommaviy ofertasini (keyingi o'rnlarda – Oferta) shartlari bilan to'liq tanishib chiqqanligini tasdiqlab, ushbu Oferta shartlari asosida Operator bilan telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi to'g'risida shartnoma tuzadi;

- Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Abonent dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi va to'lov faktini tasdiqlovchi tegishli moliyaviy hujjatni olishi Operator Ofertasining shartlarini so'zsiz qabul qilishi (akseptini) hisoblanadi.

1.2. Tomonlar Ofertaning 2-moddasida ko'rsatilgan maqsadlarda ushbu Shartnomanini imzolaganidan so'ng, Operator Abonentga identifikatsiya raqamini beradi. Identifikatsiya raqami berilganidan so'ng, Abonent, Operator tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati doirasida o'z tanlovidan kelib chiqib, Dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi mumkin.

1.3. Xizmat ko'rsatish shartlari Ofertaning 3-moddasida belgilangan asoslarda va Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi hamda ushbu xizmatni taqdim etish uchun texnik imkoniyatlar mavjudligidan kelib chiqqan holda belgilanganadi.

2. Tomoniarning huquq va majburiyatlar:

2.1. Operator ushbu Shartnomanini imzolagan vaqtidan boshlab, Ofertaning 4-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.2. Abonent ushbu Shartnomanini imzolagan vaqtidan boshlab, Ofertaning 5-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.3. Tomonlar ushbu Shartnoma amal qilish davrida, o'z huquq va majburiyatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash yuzasidan zarur choralarini amalga oshiradilar.

3. Hisob-kitob va to'lovlar tartibi

3.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha Ofertaning 6-moddasiga muvofiq, xizmatlar (mobil aloqa xizmati bundan mustasno) ko'rsatilganidan keyin to'lovni amalga oshirish (Postpaid) tizimi shartlari tatbiq etiladi.

3.2. Tariflar Abonent bilan Shartnoma tuzilganda va Operator xizmatlaridan foydalanan jarayonida Abonent bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun majburiydir. Xizmatlar uchun barcha tariflar milliy valyutada ko'rsatiladi va ushbu Shartnoma tuzilgan vaqtida belgilangan barcha soliqlar va yig'ilmanni o'z ichiga oladi.

3.3. Xizmatlardan foydalananish uchun Abonent to'lovi birinchi oyda ushbu Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 3 (uch) bank kuni mobaynida amalga oshiriladi.

3.3.1. Ilk bor ulanishda Abonent to'lovi 100 (bir yuz) foiz miqdorida oldindan to'lanadi. Dastlabki avans to'lovi oldindan to'lov bo'yicha talabnama (hisob) asosida hamda ushbu Shartnomaning tegishli ilovasida (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) ko'rsatilgan miqdorga muvofiq har bir tanlangan xizmat turi uchun alohida amalga oshirilishi mumkin.

3.4. Byudjet tashkiloti bo'lgan Abonent uchun Shartnomaning umumiyligi summasi ushbu Shartnomaning tegishli ilovasiga (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi.

Shartnomaning umumiyligi summasi (QQSni hisobga olgan holda) 3129000 =  
(Учунининг сумма бўз сарсон миждурои кечикларни ойнайсан) so'mni tashkil etadi. Ushbu summa 1063000 =  
(бўз сарсон миждурои кечикларни ойнайсан) so'm miqdoridaq oylik Abonent to'lovini ham o'z ichiga oladi.

3.4.1. Mazkur Shartnomaning umumiyligi summasi oshib ketgan taqdirda, ortiqcha summa Tomonlar o'tasida imzolangan qo'shimcha kelishuv/taqdim etilgan hisob-faktura asosida to'lanadi.

3.5. Abonent ushbu Shartnomaga asosan yoki berilgan hisob-faktura asosida har oyda Operator tomonidan hisob-faktura berilgan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida ushbu Shartnomada ko'rsatilgan Operatordagi shaxsiy (elektron) hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan Operator tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar haqini to'laydi.

3.6. Agar Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamida xizmatlar ko'rsatish uchun etarli mablag' bo'lmasa yoki mazkur Shartnomaning 3.5-bandida ko'rsatilgan muddatda har oylik hisob-faktura bo'yicha to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, Operator ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatishi mumkin.

3.7. Operator tomonidan ulangan va taqdim etilgan xizmatlardan Abonent tomonidan foydalaniylasligi, Abonentga ushbu xizmatlar uchun to'lovlarini amalga oshirmasligiga asos bo'la olmaydi.

3.7.1. Agar Abonent Operator xizmatlaridan foydalanihni vaqtincha to'xtatishni, shuningdek, hisobot davri (kalender oyi) uchun istalmagan to'lovlarning oldini olishni istasa, Abonent hisobot oyining 1-kunidan oldin xizmatlarni ixtiyoriy ravishda blokirovka qilish uchun ariza topshirishi kerak. Blokirovka qilish tartibi Oferta qoidalari bilan tartibga solinadi.

3.8. Operatordan bonuslar ko'rinishida reklama aksiyalari doirasida Abonentga taqdim etilgan barcha mablag'lar faqat Operator xizmatlari uchun to'lanishi mumkin va Shartnoma bekor qilinganda Abonentga pul shaklida to'lanmaydi yoki qaytarilmaydi.

3.9. Operator tomonidan taqdim etilgan xizmatlar, Shartnomaga muvofiq har bir xizmat turi uchun alohida rasmiylashtiriladigan hisob-faktura bilan yopiladi. Har bir hisob-fakturada taqdim etilgan xizmatlarning to'liq kalender oyi uchun umumiyligi miqdori ko'rsatiladi.

3.9.1. Agar Abonent 10 (o'n) ish kuni mobaynida Operator tomonidan taqdim etilgan hisob-faktura bo'yicha o'z e'tirozlarini yozma yoki elektron shaklida taqdim etmasa, ushbu xizmat turi bo'yicha hisob-faktura qabul qilingan va xizmatlar

tegishli tarzda ko'rsatilgan deb hisoblanadi. Abonentning e'tirozları asoslantirilgan taqdirda, Operator keyingi kalendar oyida taqdim etiladigan xizmatlar uchun to'lov talabnomasida (hisobida, hisob-fakturada) tegishli tuzatishlarni amalga oshiradi.

3.10. Ofertaning 6.15-kichik bandida belgilangan tartibda, Abonentning Shaxsxiy (elektron) hisob raqamining balansi salbiy bo'lganida 1 (bir) kalendar oydan oshmagan muddatga Abonentning kafolat xati asosida Operator tomonidan Abonenta xizmatlardan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin.

#### 4. Tomonlar javobgarligi

4.1. Tomonlar Ofertaning 8-moddasiga va ushbu Sharhnomaga muvofiq belgilangan majburiyatlarini bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari hamda Ofertada nazarda tutilgan tartibda va miqdorlarda javobgar bo'ladi (Tomonlarga nisbatan javobgarlikning cheklanish holatlari bundan mustasno).

#### 5. Nizolarni hal qilish tartibi

5.1. Tomonlarning ushbu Sharhnomani bajarish bilan bog'liq masalalar bo'yicha barcha nizolari va kelishmovchiliklari Ofertaning 11-moddasini talablari asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hamda nizolarni sudgacha hal etish tartibiga rivoja qilingan holda o'zaro kelishuv orqali hal qilinadi.

5.2. Tomonlar o'tasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklarni o'zaro kelishuv orqali hal etishning imkon bo'limgan taqdirda, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari muvofiq Farg'onan tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

#### 6. Alovida shartlar

6.1. Tomonlar mazkur Sharhnomanining amal qilish davrida o'z huquqlari va majburiyatlarini bilan bog'liq ravishda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari normalarini buzishi mumkin bo'lgan har qanday choralar ko'rnasliklari yoki xatti-harakatlarni sodir etmasliklari yuzasidan majburiyatlarini qat'iy e'tirof etgan holda, o'zaro hamkorlik madaniyatini yuqori darajada ta'minlash va korrupsiya holatlari murosasiz kurashish choralarini ko'radi.

6.2. Mazkur Sharhnomanining amal qilish davrida Tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'limgan har qanday holatlarda va hodisalarda (engib bo'lmaydigan kuchlar/fors-major holatlari) Ofertaning 10-moddasini qoidalariiga amal qilinadi.

6.3. Abonentning yozma/elektron shaklda taqdim etilgan ariza/e'tiroznomasi/shikoyat/taklif ko'rinishidagi murojaati ko'pi bilan 30 (o'ttiz) kun davomida ko'rib chiqiladi va tegishli shaklda javob beriladi. Bunda murojaatni ko'rib chiqish uchun 15 (o'n besh) kundan ortiq muddat talab etilsa, Abonent (murojaat muallifi) Operator tomonidan bu haqda majburiy ravishda xabardor qilinadi.

#### 7. Yakuniy qoidalar

7.1. Ushbu Sharhnomanining barcha muhim shartlari Ofertaga muvofiq belgilanadi. Ushbu Sharhnomada yoki Ofertada nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariiga amal qiladi.

7.2. Ushbu Sharhnomasi Tomonlar o'tasida imzolangan paytdan boshlab, kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar amal qiladi. Agar, Sharhnomanining belgilangan amal qilish muddati tugaganidan so'ng, Tomonlar (byudjet tashkiloti bo'lgan Abonentga tatbiq etilmaydi) o'z shartlarini bajarishni davom ettirsa va Tomonlarning hech biri uning bekor qilinishini e'lon qilmagan bo'lsa, Sharhnomasi har bir keyingi yilga uzaytilridi.

7.2.1. Abonent tomonidan ushbu Sharhnomanining imzolanishi – Oferta akseptini (Abonentning Oferta shartlarini qabul qilganligi haqidagi javobini) bildiradi.

7.3. Ushbu Sharhnomasi, shu jumladan, Operatorning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan Oferta, ilova va qo'shimchalar (agar mavjud bo'lsa) Sharhnomasi predmeti yuzasidan Operator va Abonent o'tasida to'liq Sharhnomani tashkil etadi.

7.4. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari, ularning ta'sis hujjatlari (mulkdorlari) o'zgargan taqdirda, shu jumladan tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi va boshqa o'zgarishlar ro'y bergan taqdirda Sharhnomasi o'z kuchida qoladi. Tomonlar bunday o'zgarishlar amalga oshirilgan kundan boshlab, 10 (o'n) kalendar kun ichida bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

7.5. Ushbu Sharhnomasi o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilganda (agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan bo'lsa) va ushbu harakatlar Tomonlarning vakolati shaxslari tomonidan imzolangan hamda Tomonlarning muhrlari (mavjud bo'lgan taqdirda) bilan tasdiqlangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

7.6. Ushbu Sharhnomasi davlat tilida, 2 (ikki) nusxada rasmiylashtirilgan (har bir Tomon uchun bitta nusxadan beriladi).

8. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari:

<b>Operator</b> "Uzbektelekom" AK Farg'onasi filiali	<b>«Abonent»</b>
Manzil: 150100 Fargona viloyati Fargona shahar Al-Fargoniy 5 Tel: 73 229-0010; 73 229-0011 X/r: 2021 0000 3040 7483 8418 Aloqabank ATB MFO: 00401 STIR: 203 366 731 OKED: 61100	Manzil: <i>Sharhnomasi u. 16 bex509 v/2</i> Tel: Faks: <i>2001-30-56</i> X/r: <i>23402900300100001010</i> Bank nomi: <i>Маркази Ўзбек Телеком</i> MFO: <i>00014</i> STIR: <i>100181044</i>
Call markaz 1155 El.Pochta: <a href="mailto:fertel@uztelecom.uz">fertel@uztelecom.uz</a>	OKED: Telefon raqam: Tel: _____ El.Pochta: _____
Direktor: <i>V.V.Yejkov</i> Yuriskonsult: <i>R.Xamidov</i>	M.O. <i>F.M.Doniyorov</i>
 <b>FARG'ONA</b> <b>FILIALI</b>	

*10/01/2023 22. Суфандар*

## Ko'rsatiladigan xizmat

## 1. Xizmat turlari va ularning tariflari

## *Qiymat birligi Milliy valyuta – So'm*

Nº	Xizmatlar nomi	Bahosi (Narxi) QQS bilan	Asos	soni	So'mmasi, QQS bilan so'm
1	2	3	4	5	6
I.	Bir martalik to'lovlar				
1.1	Har bir ulanish nuqtasi uchun ro'yhatdan o'tkazilgan to'lovi		buyruq		
II.	Har oylik abonent to'lovleri				
2.1	<u>Corporate-4</u> tarif rejasiga asosan Internet tarmog'iga ulanish tezligi <u>100/25</u> Mb/s	<u>1000000</u>	Narxnomma	<u>1</u>	<u>1000000</u>
2.2	<u>5ログイン.UZ</u> tarif rejasiga asosan Internet tarmog'iga ulanish tezligi <u>2048</u> Kb/s	<u>45000</u>	Narxnomma	<u>1</u>	<u>45000</u>
2.3	<u>IPTV</u> tarif rejasiga asosan Internet tarmog'iga ulanish tezligi <u>8192</u> Kb/s	<u>18000</u>	Narxnomma	<u>1</u>	<u>18000</u>
Jami:					<u>1063 000</u>

Shartnomaning umumiy summasi (QQSni hisobga olgan holda) \_\_\_\_\_ () so'mni tashkil etadi. Bundan to'lanadigan oylik abonent to'lovi: 1063 000 (bir million oltmish uch ming) so'm, 15% QQS bilan

## «Operators»

«O'zbektelekom» AK «Farg'onalar» filiali

## «Abonent»

